

ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLAT VA MILLIYAT TALQINI

Avazov Normurod Hakimovich
filologiya fanlari doktori(DSc)
Alfraganus universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida millat, milliyat, inson, vatan va ona tili tushunchalarining badiiy hamda ma'naviy talqini tahlil qilinadi. Shoir asarlarida milliy o'zlikni anglash, xalqning tarixiy xotirasi, inson qadr-qimmat, tilning millat hayotidagi o'rni va vatanparvarlik g'oyalari yoritiladi. Xususan, "O'zbekim", "Inson", "Ona tilim o'lmaydi", "Ruhlar isyoni" kabi asarlar misolida shoirning millat manfaatlari, inson huquqlari, erkinlik va ma'naviy uyg'onish haqidagi qarashlari ochib beriladi. Tadqiqotda Erkin Vohidovning milliy tafakkurni yuksaltirish, ona tili nufuzini mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishdagi badiiy mahorati ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so'zlar: *millat, milliyat, Erkin Vohidov, inson, Vatan, ona tili, milliy o'zlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, inson huquqlari, ma'naviyat, badiiy talqin.*

Millat va milliyat tushunchalari aslida insoniyat tarixi qadar qadimiydir. "Millat" tushunchasi har tamonlama mukammal yondoshuv Alisher Navoiy asarlarida kuzatiladi. Navoiy asarlarida:

1. Millat atamasining e'tiqodiy birlik sifatida talqini;
2. Millat istilohining etnos, el ma'nosida qo'llanib, "turk", "o'zbek" atamalari orqali ifodalanadi. Uning quyidagi mashhur satrlarida ushbu fikrimizning tasdig'ini ko'ramiz:

Turk nazmida chu tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Shu nuqtai nazardan Erkin Vohidovning ijodiga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning ijodida millat va milliyat tushunchalari bir butunlikni tashkil etadi. Uning she'rlarida millat va milliyat atamalari ma'nolarini o'zbek, til, inson, vatan, xalq kabi atamalari orqali talqin etilganligini ko'ramiz.

Erkin Vohidov chin ma'noda o'zbek millatining nomini, uning qiyofasini, uning tilini, ruhiyatini ko'rsata olgan xodimul millat shoirdir.

Erkin Vohidovning ijodini varaqlar ekansiz, shoir –bu fidoyilik degan tushunchaga kelasiz. Ya'ni, shoir yaratgan millatning har bir qahramoni xalqning yuzi, chehrasiga bir ko'zgudir. Shoirning har bir ijodi millatning joniga payvastalikdir. Shoirning inson, millat taqdiri haqida qayg'urishi ijodining mag'zini tashkil etadi. Shoir umri davomida o'zbek millatini ulug'ladi. Millatning xarkterini, ichki tuyg'ularini, kechinmalarini, soddadilliklarini chin dildan tasvirladi. U har qanday holatda ham ijodida o'zbek millatining dardini o'yladi, qadrini va qimmatini ulug'ladi.

Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi (1968), "Vatandan yaxshi yor bo'lmas" muxammasi(1968),"Inson"(1973) qasidasi, "O'zbekiston" faxriyasi (1974), "Vatan sog'inchi" (1986) she'ri, "Turkiston bir, vatan bir" she'ri(1992), "Ruhlar isyoni" (1979) dostoni "Istanbul fojiasi" she'riy dramasi, "Vatan qadri" (1992), "Hurriyat tongotari" she'ri kabi asarlari fikrlarimizning yaqqol namunalari hisoblanadi.

Erkin Vohidov sovet davrida tug'ilib, uning ijodi shakllandi. Shu davrning qahramonlari bo'lgan o'zbek millatini ulug'lashga bel bog'lagan jonko'yar shoir edi.

Ma'lumingizki, izohli lug'atlarda inson bu – dunyoning aziz-u mukarram xilqati, mavjudodlar ichida sarvaridir. Insonga yashash uchun huquq berilgan. Insonning huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Inson o'zi uchun dunyoda huquqlarini kafolatlovchi hujjatlar qabul qildirishga erishdi. Jumladan, 1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan "Inson huquqlari umumjahon Deklorasiyasi" qabul qildirdi. Bu hujjat butun dunyodagi millatlarning inson sifatidagi huquqlari kafolatlab qo'ydi. Hujjatning kirish qismida: "Inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning

ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib" qabul qilganligi e'tirof etilgan 1973 yili shoirning "Inson" qasidasi yaratildi. Insonga qasida bo'lgan bu asar huquqiy hujjatlarga hamohang yozilgan insonga madhiyadir. Ya'ni:

Sobitu sayyorada

Inson o'zing, inson o'zing.

Mulki olam ichra bir

Xoqon o'zing, sulton o'zing.

Shoir insonning goh adolat, goh adovat qo'yinida ekanligini tasvirlaydi. Ona zamin taqdiri esa shu ulug', shu ojiz bo'lgan insonning o'zi qo'lida, uning ixtiyorida ekanligini baralla aytadi.

Kelding olamga, demak,

Etmas uni so'rmak, emak,

Erni etmog'ing kerak

Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

Shoir insonni inson degan ulug' nomga astoydil munosib bo'lishini istaydi.

U dunyo millatlarini do'st bo'lishga chaqiradi. Agarda millatlarning bir – birlariga oqibatlari bo'lmasa, armonli oqibatlarga olib kelishini yozdi:

Mamlakatga mamlakat,

Millatga millat bo'lsa qasd.

Qilg'uvchi so'ng oqibat

Armon o'zing, afg'on o'zing.

Qasidada shoirning insonga bo'lgan qarashlari shundaki, insonda ziddiyatlar bo'lishiga qaramasdan, uning istiqboliga ishonadi, imkoniyatlarini qadirlaydi, uning buyukligiga hurmat bilan qaraydi.

Shoirning "O'zbekim" qasidasi millatning shoh asaridir. Shoir o'zbek millatining o'tmishi va bugunini daqiq tushunadigan ijodkor. U bu qasidasi orqali o'zbek millati uchun, uning dunyoda mavjud bo'lishi uchun shoirning jasortli murojaati edi. Bu asarda millatning ayni paytda aytilishi kerak bo'lgan odil so'zlari, millatning ichki kechinmalarini ifoda etdi. Inson huquqlari umumjahon Diklarasiyada yozilganiday: "Hamma odamlar o'z qadr – qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng

bo‘lib tug‘iladilar” deb o‘zbek millatining ham o‘z tarixi, o‘z huquqi va erki baland bo‘lishini istadi. Qasidada millatning tarixiy kechinmalari shunday tasvirlandiki, shoir Mahmud Toir aytganiday: ”bu qadr qasidasi edi”, - ”sovet davrida ”O‘zbekim” qasidasini e‘lon qilishga jur‘at etish, jonni qalam tig‘iga emas, dushman tig‘iga tutash edi. Bu jonning emas-vijdon og‘rig‘i edi. Qadri haqida o‘ylagan odam bir qalqib oladi. Ushbu qasida o‘z davrida butun bir millatni qalqitdi. Tili chiqayotganning ham, tilidan qolayotganning ham xush qo‘shig‘iga aylandi. Qalblar oftoblandi, dillar orolandi, yuraklar duk – duk urdi. Keksayu yosh tilida bir quvonch jarangladi: ”Bor ekan-ku!”, ”Bo‘larkanku!”, ”Umridan baraka topsin, kamlik ko‘rmasin!””, dedilar.

Qasida ming asrdan tortib bugungi kungacha bo‘lgan millatning o‘ziga o‘zining qadrini oyina sifatida ko‘rsatdi. Dastlab:

O‘tdilar sho‘rlik boshingdan

O‘ynatib shamshirlarin.

Necha qoon, necha sulton,

Necha ming xon, o‘zbekim.

Qasidaning dastlabki satrlaridanoq ko‘rinadiki, o‘zbek millati, xalqi tarixda mustabid zulm ostida bo‘lganligini aytsa, bugungi kundagi millatning yutuqlarini ko‘rib, o‘zining faxrini yashira olmaydi. Millat tanti dehqonining ko‘kragi tog‘day – tog‘day ko‘tarilganidan g‘ururlanadi:

Faxr etarman, ona xalqim,

Ko‘kragimni tog‘ qilib,

Ko‘kragida tog‘ ko‘targan

Tanti dehqon o‘zbekim!

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining dastlabki bobida suverenitetlik tushunchasi berilgan bo‘lib, uning asosiy belgisi bu millatning tilidir. Mamlakatda mustaqil til bo‘lsagina u suveren davlat hisoblanadi. Erkin Vohidovning ”Ona tilim o‘lmaydi” she’ri 1976 yili yozildi. Bu she’r sovet davrida o‘zbek tilining qadri pasayib ketayotgan bir paytda yaratilgan edi. Shoir o‘zbek tilining yo‘qolib ketmasligiga boshqalarni ham ishontira bildi:

Notiq dedi:

”Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda,
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda”.

Shoirning mahorati shundaki, til to‘g‘risida gapirib, uning qadrini tiklash uchun, uning yo‘qolmasligini istab, dunyo adabiyot namoyondalari nomidan bong o‘rdi. Shu o‘rinda o‘zbek tilining ham yo‘qolmasligini baralla aytdi. Ya’ni:

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

Shoir she'rni o‘zbek tilining kelajagini o‘ylab yozdi . Qolaversa, tilning ozod va erkin bo‘lishi istab yozdi. E'tirof etish kerakki, o‘zbek millatining ulug‘ shoiri Erkin Vohidov millat va milliyat talqinida ijodini davom ettirib, millatning nurli kelajagi uchun voqealarning boshqa elda sodir bo‘lishi bahonasida bo‘lsa ham, o‘z millati va o‘z yurti qayg‘usi bilan ijod qildi. ”Ruhlar isyoni” dostoni bu fikrlarimizning tasdig‘idir. Dostonda shoir o‘z qahramoni nomidan yozdi:

Xalqining yotsa chekib faryod,
Yaramasang kuniga.
Shoir esang,
Shoir bo‘lib
Nega kelding hayotga,
Eling yotsa dardga to‘lib,
Kelolmasang najotga?!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isomiddinovna, E. S. (2025, October). Islomgacha va islom dini bilan bog‘liq tarixiy shaxslar obrazi. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 12-18).

2. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные весты*, (10), 46-50.

3. Hakimovich, A. N. (2021). The ability of behbudiyy in the selection of word. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1320-1327.

4. Eshonqulova S. Erkin Vohidov o'qishlari: ijodkor ruhiyati va zamonaviy adabiy tafakkur [Matn]: to'plam / Alfraganus University (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi S.I.Eshonqulova). – Toshkent: Alfraganus, 2026. – 353 b.

5. Eshonqulova, S. (2020). Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tili va undagi sinonimlik hodisasi. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 57.

6. Azimboyevna, Y. S. (2024). Jahon va o'zbek fantastik asarlarida takroriy motiv tushunchasi va uning badiiy talqini. *Research Focus*, 3(Special Issue 1), 19-23.

7. Hakimovich, N. A. (2025, October). “Padarkush” dramasi: dastlabki nashri va tabdillari tahlili. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 258-262).

8. Juraeva, N. G. (2021). Observation of the poetic unity of the verse in the poetry of Muhammad Riza Ogahi. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 293-302.